IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON" ASARINING TURKIY TARJIMALARI XUSUSIDA

Xazratqulova Shoxsanam Sharafiddinovna
DTPI Adabiyotshunoslik 1-kurs magistranti
hazratqulovashohsanam6@gmail.com +99895 373 04 13

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari hamda uning turkiy tillarga qilingan tarjimalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarning badiiy, uslubiy va mazmuniy xususiyatlari yoritilib, uning Sharq adabiyotidagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, "Guliston"ning XIV–XX asrlar davomida turkiy tillarda yaratilgan asosiy tarjimalari, ularning o'ziga xos jihatlari, tarjima uslublari va tarixiy ahamiyati qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida mazkur tarjimalarning turkiy adabiy muhitdagi o'rni hamda madaniy aloqalarni yoritishdagi roli aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Sa'diy Sheroziy, Guliston, turkiy tarjimalar, Sayfi Saroyi, Ogahiy, tarjimashunoslik, Sharq adabiyoti, didaktik asar, nasr va nazm, qo'lyozma manbalar

Abstract: This article provides a scholarly analysis of Sa'diy Sheroziy's work "Gulistan" and its translations into Turkic languages. The study examines the artistic, stylistic, and thematic features of the work and highlights its significance in Eastern literary tradition. Furthermore, the article explores major Turkic translations produced between the 14th and 20th centuries, analyzing their distinctive characteristics, translation strategies, and historical importance through a comparative approach. The findings demonstrate the crucial role of these translations in shaping intercultural literary connections and preserving the intellectual heritage of the original work.

Keywords: Saadi Shirazi, Gulistan, Turkic translations, Sayfi Sarayi, Ogahiy, translation studies, Eastern literature, didactic work, prose and poetry, manuscript sources

Sa'diy Sheroziy Eron adabiyotining eng yirik va e'tirof etilgan namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi jahon adabiy jarayonida alohida o'rin egallaydi. Shoirning eng mashhur asari sanalgan "Guliston" axloqiy-didaktik hikoyalardan tarkib topgan bo'lib, yaratilgan davridan boshlab islom olamida, ayniqsa, sunniy musulmonlar orasida keng tarqalgan va yuqori baholangan. Asar uzoq vaqt davomida turli islom mamlakatlari madrasalarida fors tili va adabiyotini o'rganishda asosiy darsliklardan biri sifatida qo'llanilgan hamda shu jarayonda ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Asrlar davomida o'ziga xos va takrorlanmas uslubda yozilgan "Guliston" hikoyaviy matn bilan she'riy parchalarning uyg'unligi orqali ajralib turadi. Asarda keltirilgan she'riy parchalar nafaqat badiiy jihatdan, balki til, leksik boylik va obrazlar tizimi nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, unda uchraydigan ayrim nodir so'zlar, iboralar, mazmuniy ramzlar hamda nozik kinoyalar nafaqat boshqa til vakillari, balki fors tilining o'zida ham chuqur tayyorgarlikni talab etadi. Tabiiyki, bu holat boshqa tilli o'quvchilar uchun yanada murakkablik tug'diradi.

Aynan shu sababli qadimdan "Guliston"ni turli tillarda sharhlash va tarjima qilishga ehtiyoj tug'ilgan bo'lib, turkiy adabiy muhitda ham ushbu asarning ko'plab tarjimalari va sharhlari yuzaga kelgan. Mazkur maqolada, avvalo, "Guliston" asarining o'ziga xos xususiyatlari, so'ngra uning turkiy tarjimalari haqida umumiy ilmiy tahlil beriladi.

Sa’diy Sheroziy ijodi Eron adabiy tafakkurining eng yuksak bosqichlaridan birini namoyon etadi. Uning badiiy merosi o‘limidan yetti asr o‘tgan bo‘lsa-da, hanuzgacha adabiy jarayonga faol ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Sa’diy inson ruhiyati va ijtimoiy hayot qonuniyatlarini chuqur anglab, ularni nozik istehzo va yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlay olgan (Yazıcı, 1993). Shu jihatdan, ayrim eron adiblari uni hatto Firdavsiy va Hofiz bilan qiyoslab, yuqori baholaydilar.

Shoirning so‘zga bo‘lgan nihoyatda nozik munosabati va fasohati sababli u “efsahu’l-mutakallimin” — “so‘zlovchilarning eng fasihi” sifatida e’tirof etilgan. Sa’diy Sheroziy, ayniqsa, g‘azal janrida yuksak mahorat sohibi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, uning badiiy tafakkuri nasr va nazm uyg‘unligida yaratilgan asarlarida yanada to‘laqonli namoyon bo‘ladi.

Shoirning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari Sharq adabiy muhitida keng tarqalib, islom olamida asrlar davomida o‘qilib, sharhlanib kelgan. Ushbu asarlar ko‘p marotaba turli tillarga tarjima qilinib, bosma va qo‘lyozma shakllarda keng muomalaga kirgan.

“Guliston” Sa’diy Sheroziyning axloqiy-didaktik mazmunga ega bo‘lgan eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, hijriy 656 (milodiy 1258)-yilda yozilgan. Asar Sharq adabiyotida o‘ziga xos an’anaga aylangan uslubda yaratilgan bo‘lib, nasriy hikoyalar orasiga joylashtirilgan she’riy parchalar orqali badiiy yaxlitlik kasb etadi. Tuzilishi jihatidan muqaddima va sakkiz bobdan iborat bo‘lgan ushbu asarda jamiyat hayotining turli qatlamlariga oid masalalar izchil yoritiladi.

Boblar mazmunan inson hayotining muhim axloqiy-ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi: hukmdor va hokimiyat mas’uliyati, darveshlik va ma’naviy poklik, qanoat va sukutning fazilati, yoshlik va keksalik, tarbiya va suhbat odobi kabi mavzular badiiy hikoyalar va lo‘nda baytlar orqali ochib beriladi (Yazıcı, 1993, 38-bet). Ushbu hikoyalar ko‘pincha kundalik hayot manzaralariga tayanib, ulardan umumlashgan axloqiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi (Yazıcı, 1996, 240-b).

“Guliston”ning badiiy mukammalligi nafaqat mazmun, balki tuzilish va uslubda ham namoyon bo‘ladi. Boblarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishi, nasriy va manzum qismlarning mutanosibligi, fikrlarning qisqa va lo‘nda ifodalanishi asarning yuksak adabiy darajasini belgilaydi (Yazıcı, 1993, 38-bet). Shu bois “Guliston” Sharq adabiyotida nafaqat axloqiy qo‘llanma, balki yuksak badiiy namuna sifatida ham qadrlanadi.

Sa’diy Sheroziygacha bo‘lgan adabiy an’anada axloqiy-didaktik mazmun, asosan, nazm shaklida bayon etilib, pand-nasihatlar she’riy yo‘sinda ifodalangan. Bunday yondashuvda fikrni yetkazish uchun she’r shakli eng qulay vosita deb hisoblanganligi sababli, nasriy ifoda deyarli qo‘llanilmagan. Sa’diy Sheroziy aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida “Guliston”ni nasriy asosda yaratdi (Nasr, 1316, 804-bet).

Jahon adabiyotida ijtimoiy masalalarni badiiy shaklda keng va izchil yoritgan asarlar ko‘p emas. “Guliston” ana shunday nodir asarlar sirasiga kiradi. Unda Sa’diy Sheroziy jamiyat hayotiga oid muhim ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqadi va ularning har birini chuqur ma’no hamda ibratga boy hikoyalar orqali ifodalaydi.

Turk olimi Hikmet İlaydın “Guliston”ni Sa’diy Sheroziyning boshqa asarlari bilan ichki bog‘liqligi, shuningdek, muallifning turli adabiy imkoniyatlarini erkin sinab ko‘rishiga zamin yaratgani jihatidan baholab, ushbu asarni shoir ijodini eng to‘laqonli aks ettiruvchi sintez xarakteridagi asar deb ta’riflaydi. Uning fikricha, Sa’diy Sheroziyning shaxsiyati va ijodiy qiyofasi aynan shu asarda eng yorqin tarzda namoyon bo‘ladi (İlaydın, 1974, 13-bet).

Yaratilgan davridan boshlab katta e’tibor qozongan “Guliston”ning bugungi kunda dunyo kutubxonalarida ko‘plab qo‘lyozma nusxalari saqlanmoqda. Shuningdek, asarning turli bosma nashrlari hamda ko‘plab tillarga qilingan tarjimalari mavjud. Bu holat “Guliston”ning Sharq va jahon adabiy makonidagi keng tarqalganligi hamda barqaror ta’sir kuchini yaqqol ko‘rsatadi.

“Guliston” asarining ilk turkiy tarjimasi Oltin O‘rda adabiyoti vakili Sayfi Saroyi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u “Guliston bit-turkiy” nomi bilan mashhurdir. Mazkur

tarjimaning O‘zbekistonda ilk bor qayta nashrini tayyorlagan sharqshunos olim E. Fozilov asar so‘zboshisida uning tarjima qilinish sabablari hamda yakunlangan vaqti haqida quyidagicha ta’kidlaydi: “Gulistonning xalq ijodi va dunyoqarashi bilan uzviy aloqadorligi, ijtimoiy voqealarni mukammal qamrab olgani uni turkiy tilga tarjima qilinishiga sabab bo‘lgan. Sayfi Saroyi bu asarning tarjimasini 1391-yilda tugatadi”.


Mazkur fikrlar jahon olimlari tadqiqotlarida ham o‘z tasdig‘ini topadi. Jumladan, turk adabiyotshunosligida “Guliston”ning ilk tarjimasi 793/1391-yilda Sayfi Saroyi tomonidan qipchoq turkchasiga amalga oshirilgani, asar Malik Barquqning vaziri Bathas Sudunga bag‘ishlangani qayd etiladi (Eckmann, 1996, 55-bet).

Mazkur tarjimada Sayfi Saroyi asarning asl matniga to‘liq bog‘lanib qolmagan. Nasriy hikoyalar ma’lum darajada manbaga yaqin tarjima qilingan bo‘lsa-da, nazmiy parchalar ancha erkin talqin etilgan. Adabiyotshunos Najmiddin Komilov ham bu masalaga e’tibor qaratib, “Sayfi Saroyiyning o‘zgartirishlari she’rning ma’no va intonatsiyasini boshqa yo‘lga burib yuborgan, originaldan ancha yiroqlashtirgan”, deya ta’kidlaydi (Komilov, 89-bet). Shuningdek, ayrim bo‘limlarning tarjimasiz qoldirilgani ham manbalarda qayd etiladi (Taymas, 1988, 74–79-betlar). Tarjima matnida esa Sayfi Saroyiga mansub ayrim original she’riy parchalar ham uchraydi (Joseph, 1331, 133-bet).

Tarjima matnini 1986-yilda nashrga tayyorlagan olim Nasrullo Davron esa asar so‘zboshisida “Guliston bit-turkiy” qo‘lyozmasi haqida muhim ma’lumot beradi. Unga ko‘ra, asarning jahon bo‘yicha yagona nusxasi Leyden universiteti kutubxonasida saqlanadi (Davron, 1986). Ushbu qo‘lyozma asosida o‘zbek sharqshunoslari tomonidan amalga oshirilgan qayta nashrlar tayyorlangan.

Turk adabiyotshunosligida esa mazkur qo‘lyozma ustida tadqiqotlar ancha erta boshlangan. Xususan, Leyden universiteti kutubxonasida saqlanayotgan yagona nusxaning faksimil nashri Feridun Nafiz Uzluk tomonidan muqaddima bilan birga chop etilgan (Uzluk, 1954). A. Fehmi Karamanlıoğlu esa ushbu qo‘lyozmaning tanqidiy matnini 1967-yilda tayyorlab, keyinchalik uni 1978 va 1989-yillarda Anqarada nashr ettirgan. Venger turkologi A. Bodrogligeti asarni 1969-yilda Budapeshtda, Prof. Dr. Emir Nadjib esa 1975-yilda Olmaotada ikki jild holida nashr ettirgan.

Shu bilan birga, qo‘lyozma raqami masalasida ayrim tafovutlar mavjud. Jumladan, Nasrullo Davron qo‘lyozma raqamini 1355 sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, Ahmet Kartal uni 1553 raqami bilan qayd etadi. Leyden universiteti kutubxonasi katalogi asosida olib borilgan tekshiruvlar natijasida ushbu qo‘lyozmaning asl raqami 1553 ekanligi aniqlanadi.



Adabiyotshunos Najmiddin Komilov mazkur asar o‘zbek tiliga to‘rt marotaba tarjima qilinganini qayd etadi. Unga ko‘ra, “Guliston” Sayfi Saroyi, Ogahiy, Murodxo‘ja hamda G‘afur G‘ulom, Sh. Shomuhamedov va R. Komilovlar tomonidan tarjima qilingan (Komilov, yil, 30-bet). Sharqshunos olim E. Fozilov esa Sayfi Saroyi tarjimasidan tashqari Ogahiy hamda

Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar mavjudligini alohida ta’kidlaydi (Fozilov, 1968).

Shuningdek, O‘rta Osiyo va Volgabo‘yi hududlarida “Guliston”ning bir nechta turkiy tarjimalari mavjud bo‘lib, ular XIV–XX asrlar oralig‘ida yaratilgan. Ushbu qo‘lyozmalar, asosan, eski o‘zbek tilida bitilgan. Topilgan yangi nusxalarni ham hisobga olgan holda, ularning umumiy soni yettitaga yaqin ekanligi haqida Aftondil Erkinov ma’lumot beradi. Olim bu ro‘yxatga Ispijobiy tarjimasi hamda Germaniya kutubxonalaridan birida saqlanayotgan yana bir noma’lum nusxani ham kiritadi (Erkinov, 2022-yil, 30-bet). Kartal esa bu tarjimalar soni o‘ndan ortiqligini qayd etadi (Kartal, 2001).

Xronologik tartibga murojaat qiladigan bo‘lsak, asarning ikkinchi turkiy tarjimasi Ispijobiyga tegishli bo‘lib, u hijriy 800 (1397–1398)-yillarda amalga oshirilgan. Ushbu tarjima Turkiston voliysi, Temurning nabirasi Muhammad Sultonga bag‘ishlangan (Eckmann, 1989, 17-bet). Mazkur tarjima ilmiy adabiyotda ilk bor Zakiy Validiy To‘g‘on tomonidan qayd etilgan (Togan, 1960, 146-bet).

Ispijobiy tarjima jarayonida forscha asl matnning umumiy mazmunini saqlagan holda, so‘zma-so‘z yondashuvdan qochgan. Natijada ayrim o‘rinlarda matn ixchamlashtirilgan bo‘lsa, boshqa joylarda izoh va qo‘shimchalar bilan boyitilgan. Ayniqsa, manzum qismlarda tarjimonning erkinroq yo‘l tutgani kuzatiladi. Sa’diy Sheroziyning birinchi shaxsda bayon qilingan ayrim fikrlari ba’zan aynan shu shaklda, ba’zan esa “Shayx aytur / rahmatullohi alayh” kabi ifodalar orqali qayta berilgan (Eckmann, 1989, 17-bet).

Mazkur tarjimaning hozircha ma’lum bo‘lgan yagona qo‘lyozma nusxasi British Museum fondida Or. 11685 raqami bilan saqlanadi. Qo‘lyozmaning ko‘chirilgan joyi, vaqti va kotibi aniqlanmagan. Shuningdek, u to‘liq saqlanmagan bo‘lib, bosh va oxir qismlaridan ayrim varaqalar yo‘qolgan. Hozirgi holatida qo‘lyozma 110 varaqdan iborat (Eckmann, 1989, 17-bet).

Keyingi turkiy tarjima Anadolu hududida yaratilgan bo‘lib, u Sulton II Murad davri olimlaridan Mahmud ibn Qodiy Manyos nomi bilan bog‘lanadi. Tarjimon tomonidan “Guliston”ning ikki xil tarjimasi amalga oshirilgan: birinchisi — nazmiy va qo‘shimchali, ikkinchisi esa muxtasar nasriy shakldagi variantdir.

Birinchi tarjima hukmdor topshirig‘i bilan amalga oshirilgan bo‘lib, unda asar ayrim qo‘shimchalar hisobiga kengaytirilgan. Tarjimon ayrim hollarda asl matndan chekinib, bayon etilayotgan mavzuga mos holda qo‘shimcha hikoyalar va latifalarni kiritgan. Bundan tashqari, har bir hikoyadan so‘ng chiqariladigan xulosalarni alohida ko‘rsatib o‘tgan. Tarjima jarayonida nasriy va manzum qismlar aniq ajratilmagan bo‘lsa-da, she’riy parchalar fors tilida keltirilib, ularning ostiga turkcha she’riy tarjimalari berilgan (Özkan, 1993, 7–8-betlar).

Mazkur tarjima to‘liq emas: sakkiz bobdan iborat “Guliston”ning faqat dastlabki to‘rt bobigina tarjima qilingan. Tili sodda va asosan turkiy unsurlarga tayangan ushbu tarjimaning qo‘lyozma nusxasi universitet kutubxonasida T.Y. 3010 raqami bilan saqlanadi (Özkan, 1983, 10-bet).

Mahmud ibn Qodiy Manyos tomonidan tayyorlangan ikkinchi tarjima esa nasriy va ixcham shaklda yaratilgan bo‘lib, unda tarjimon she’riy va qo‘shimchali uslubdan voz kechgan. Ushbu variantda “Guliston” to‘liq nasriy shaklda tarjima qilinib, Sulton II Muradga taqdim etilgan (Özkan, 1993, 14-bet).

To‘rtinchi yirik turkiy tarjima Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) tomonidan amalga oshirilgan. U mashhur o‘zbek shoiri, tarixnavis va tarjimon bo‘lib, Xiva xonligi saroyida faoliyat yuritgan. “Guliston” tarjimasi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II farmoniga ko‘ra yaratilgan.

Ogahiy tarjimasi o‘zining badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi va u “Guliston”ning eng go‘zal turkiy tarjimalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Biroq tarjima to‘liq emas. Tadqiqotlarga ko‘ra, asardagi 187 hikoyatdan 25 tasi tarjimada aks ettirilmagan. Shuningdek,

“hikmat” deb nomlangan sakkizinchi bobdagi ayrim pandlar “hikoyat” sifatida qayta talqin qilingan.

Asarning nasriy qismidagi 116 hikmatdan faqat 30 tasi tarjima qilingan bo‘lsa, Sa’diy Sheroziyning qariyb 1000 baytga yaqin she’rlaridan 522 baytdan ortig‘i tarjimada o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, asardagi 68 ta arabcha jumla va she’riy parchalar ham tarjimada berilmagan (Komilov, 64-bet).

5-tarjima Murodxo‘ja Eshon ibn Solihxo‘ja tomonidan amalga oshilrilgan bo‘lib, U “Guliston”ni XX asr boshida Toshkentda eski o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1910-yili toshbosmada “Shavqi Guliston” nomi ostida chop etgan (Shavqi “Guliston, 1910; Sa’diy Sheroziy). Ushbu tarjimaning nazmiy qismi haqida Najmiddin Komilov quyidagicha fikr bildiradi: “Murodxo‘ja vazn bilan birga, misralardagi so‘zlar, ibora-obrazlarni ham jilla o‘zgartirmasdan berishga intilgan. U hatto frazeologik birikmani ham so‘zma-so‘z qaytaradi”. Ushbu tarjima asarning so‘zma-so‘z matniy tarjimasi desak xato bo‘lmaydi.

Oltinchi tarjima 1914-yilda tatar tiliga Muhammadsayid Ahmadjalilov tomonidan amalga oshirilgan. Uning Sharq mualliflari asarlariga oid maqolalari va tarjimalari o‘sha davr tatar davriy matbuotida tez-tez uchraydi. Biroq uning shaxsiy hayoti haqida deyarli ma’lumot yo‘q. Ma’lumki, u Petropavlovsk shahrida (hozirgi Qozog‘iston Respublikasi hududi) yashagan, madrasa mudarrisi bo‘lib ishlagan va G‘alimjon Idrisiy bilan tanish bo‘lgan. Uning tarjimalari asosan “Shura” jurnalida chop etilgan. U o‘z ishlariga “Muhammadsayid Ahmadjalilov”, “S. M.”, “M. S.”, “A. S. M. J.”, “M. S. A. J.”, “Muhammadsayid Gabduljalilov” kabi imzolar bilan muhr qo‘ygan. Uning faoliyati natijasida “Sho‘ro” jurnali sahifalarida Umar Xayyom**,** Hofiz Sheroziy kabi Sharq adabiyoti klassiklarining she’rlari ham e’lon qilingan.(Ханнанова, 193) Muhammadsayid Ahmadjalilov tarjima jarayonida quyidagi usuldan foydalangan: “Guliston”ning nasriy qismi bevosita tatar tiliga tarjima qilingan, she’riy parchalar esa avval fors tilidagi asl matn ko‘rinishida, so‘ng tatar tilida qofiyali tarjima bilan berilgan. Tarjimon bu yondashuvni shunday izohlaydi: “Qur’on oyatlari, hadislar, arab va fors tillaridagi she’rlarning tarjimasini qavs ichida berdim, chunki ularni turkiy tilga to‘liq tarjima qilsam, ularning yuksak ma’nosi yo‘qolib qolishidan qo‘rqdim” [12, 2-b.]. Har bir tarjima oxirida u hikoyatlarning mazmunini sharhlab, muallif fikrini o‘quvchiga aniq yetkazishga harakat qiladi.

“Sho‘ro” jurnalida M. Ahmadjalilov tarjimasiga dastlab baho berganlardan biri G‘alimjon Idrisiy bo‘lgan. U o‘z maqolasida “Guliston”ning Yevropada ham qadimdan mashhur ekanini qayd etib, tarjimonni bunday ulkan ishni amalga oshirgani bilan tabriklaydi. Idrisiy tarjimani baholarkan, uning tili turkiy bo‘lsa-da, gap tuzilishida forscha sintaksis saqlanib qolganini tanqid qiladi va muvaffaqiyatli tarjima asl til sezilmaydigan darajada bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Shunday qilib, o‘quvchilar fikri va bahs-munozaralar yordamida M. Ahmadjalilov deyarli butun “Guliston”ni tarjima qiladi. 1915-yilda u tarjima ishini yakunlaganini e’lon qilib, asarga “Shakariston” nomini berganini bildiradi. Mazkur tarjima XX asr boshlarida fors tilidan bevosita tatar tiliga amalga oshirilgan yagona “Guliston” tarjimasi bo‘lib, u nafaqat adabiyotshunoslik, balki tatar tili tarixini o‘rganish uchun ham muhim manba hisoblanadi. Shu bois ushbu tarjima keyingi ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Yettinchi tarjima bir guruh ijodkor va olimlar tomonidan o‘zbek tiliga amalga oshirilgan. 1968-yilda “Guliston” asarining she’riy qismlari shoir G‘afur G‘ulom hamda professor Shoislom Shomuhammedov tomonidan tarjima qilingan bo‘lsa, nasriy qismi esa Rustam Komilov tomonidan o‘zbekchalashtirilgan. Tarjima jarayonida asar qisman qisqartirilgan hamda davr talablari va mafkuraviy mezonlarga moslashtirilgan: xususan, diniy-tasavvufiy mazmundagi bo‘limlar matndan chiqarib tashlangan.

Sakkizinchi tarjima Mehmed Es'ad tomonidan amalga oshirilgan Gül-i Handan Tercüme-i Gülistan hisoblanadi. Usmonlilar davrining mashhur adibi va olimi bo‘lgan Mehmed Es'ad, tarixchi va shayxulislom Hoca Sadeddin Efendi’nin ikkinchi o‘g‘li bo‘lib, keyinchalik o‘zi ham

shayxulislom lavozimini egallagan. Ushbu tarjima Guliston matnining ayrim joylari manzum, ayrim o‘rinlari esa nasriy shaklda o‘girilgan variantidir. Tarjimon asarning bosh qismiga Sultân Ahmed I haqida yozilgan uzun masnaviy qo‘shgan va tarjimani bevosita Sultân Ahmed I’ga bag‘ishlagan (Aktepe, 1995, C. 11: s. 341). Asarning muqaddimasida uchraydigan bir baytga ko‘ra, tarjimaga Gül-i Handan nomi berilgan (Ateş, 1968: 200). Bu tarjima asl matndan ma’lum darajada chekinib, bayonni kengaytirish va ayrim so‘zlarni qo‘shish orqali amalga oshirilgan, baytlar esa she’riy shaklda tarjima qilingan (Kilisli Rifat Bilge, 1984: 312). Asar to‘liq bo‘lmagan qo‘lyozma asosida Şevket Beyzâde Saffet Bey tomonidan Istanbulda nashr ettirilgan (bak. bibl. Sadî-i Şîrâzî, 1292). Uning qo‘lyozma nusxalari Nuruosmaniye kutubxonasida (3215, 3736, 4203, 4204) hamda Topqapi saroyi muzeyi kutubxonasida, Revan ko‘shki fondida (1912) saqlanadi.

Keyingi muhim tarjimalardan biri Ahmed Sâib va İzzet tomonidan birgalikda tayyorlangan Tercüme-i Gülistân-ı Sa'dîdir. Bu tarjimada nasriy qismlar nasrda, manzum qismlar esa she’riy shaklda o‘girilgan bo‘lib, u asl matnga nisbatan ancha sodiq hisoblanadi (Kilisli Rifat Bilge, 1984: 312). Asar 1291/1874-yilda Istanbulda bosma holatda chop etilgan.

O‘ninchi tarjima Mehmed Said Afandi tomonidan amalga oshirilgan Gülistân–Mülistân tarjimasi e’tiborga molikdir. Shahzoda Reşad Efendi’nin ustozi bo‘lgan Mehmed Said Efendi Gulistonni tarjima qilib, unga Mülistân nomini bergan. Ushbu tarjimada asardagi manzum qismlar ham nasriy shaklda berilgan. Biroq tarjimada turk tilining sintaktik tuzilishiga yetarli darajada rioya qilinmagani sababli u ayrim kamchiliklarga ega deb baholanadi (Kilisli Rifat Bilge, 1984: 312). Asar Istanbulda bir necha bor qayta bosilgan (bak. bibl. Sâdî-i Şîrâzî, trhsa, 1291).

O‘n birinchi Ozarbayjon tiliga qilingan bo‘lib, 2004-yilda Sakkizinchi tarjima nusxasi Sa’diy Sheroziyning fors tilida yozilgan “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari asosida ozarbayjon tilida amalga oshirilgan kompleks tarjima va qayta nashr hisoblanadi. Mazkur nashr “Bo‘ston” (Boku, Azərnəşr, 1964) hamda “Guliston” (Boku, Azərnəşr, 1987) asarlari nashrlari asosida tayyorlanib, 2004-yilda Bokuda “Öndər nəşriyyatı” tomonidan “Tanlangan asarlar” nomi bilan chop etilgan.

Tarjima jarayonida asarning turli qismlari bir nechta tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan: “Bo‘ston” asari fors tilidan Mirmehdi Seyidzoda tomonidan tarjima qilingan bo‘lsa, “Guliston”ning she’riy qismlari Mammadaga Soltan, nasriy qismlari esa Rahim Sultonov va Ismayil Shams tomonidan ozarbayjon tiliga o‘girilgan. Nashrga so‘zboshini Masiyog‘a Muhammadi yozgan.

Mazkur tarjima original matnning to‘liq mualliflik nusxasi emas, balki tarjima va qayta nashr xususiyatiga ega bo‘lgan kompilyativ nashr sanaladi. Unda Sa’diy Sheroziyning didaktik qarashlari, axloqiy-falsafiy g‘oyalari zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarli va qulay shaklda taqdim etilgan. Kitob “Bo‘ston” asari bilan boshlanib, keyinchalik yaratilgan “Guliston” bilan davom etadi hamda qasida, ruboiy, g‘azal va qit’a kabi turli janrlarni o‘z ichiga oladi.

Nashr Ozarbayjon Respublikasida lotin grafikasi asosida milliy adabiy merosni targ‘ib etish siyosati doirasida chop etilgan bo‘lib, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning 2004-yil 12-yanvardagi farmoni asosida maktab va kutubxonalarga bepul tarqatilgan. Shu jihatdan mazkur tarjima Sa’diy Sheroziy merosining ozarbayjon adabiy muhitida keng ommalashishida muhim o‘rin tutadi.

Izlanishlar natijasida Sa’diy “Guliston”ining avval noma’lum bo‘lgan yangi turkiy tarjima qo‘lyozmasi aniqlandi. Qo‘lyozma Germaniyadagi bosh kutubxonada topilgan bo‘lib, qo‘lyozma sarg‘ish qog‘ozga bitilgan, hajmi 128 varaqdan iborat. Har bir betda 15 qator matn mavjud. Matn nasx yozuvida, harflar ustiga diakritik belgilar qo‘yilgan holda ko‘chirilgan. Asarda she’riy parchalar avval forscha asl holida, uning ostida esa eski o‘zbek tilidagi tarjimasi bilan berilgan.

Sarlavhalar, Qur’ondan iqtiboslar va diakritik belgilar qizil siyohda, asosiy matn esa qora siyohda yozilgan.

Matn asl forscha nusxa bilan qiyoslanganda ayrim farqlar kuzatiladi. Tarjimada muqaddima mavjud emas, asar o‘n birinchi hikoyatning o‘rtasidan boshlanadi va oxirida duo bilan yakunlanadi. Qo‘lyozmada tarjimonning shaxsi, asar qachon va qayerda ko‘chirilgani haqida aniq ma’lumot berilmagan.

Tarjimaning yaratilgan davri aniq bo‘lmasa-da, til xususiyatlariga asoslanib, uni XIV asr oxiri – XV asr boshiga mansub deb taxmin qilish mumkin. Bu xulosa filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqov tomonidan qo‘lyozma tili tahlili asosida bildirilgan. Olim mazkur tarjima tilida o‘g‘uz va qipchoq turkiysi unsurlari mavjudligini, shu jihatdan u Guliston bit-turkiy tiliga yaqin ekanini ta’kidlaydi.

Shuningdek, qo‘lyozmaning nasx yozuvida va diakritik belgilar bilan ko‘chirilgani O‘rta Osiyo kitobat an’anasida kam uchrasa-da, mavjud bo‘lgan holatlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Bu jihat mazkur “Guliston” tarjimasining tarixiy-filologik ahamiyatini yanada oshiradi.

To‘liq tarjimalar bilan bir qatorda, Gulistonning ayrim bo‘limlari yoki alohida hikoyalari asosida yaratilgan qisman tarjimalar ham mavjud. Ular sirasiga quyidagi tarjimalar kiradi:

1. XIX–XX asrlar tutashgan davrda Ahmad Esad tomonidan tayyorlangan **“**Guliston tarjimasi” yuzaga keladi. Ushbu tarjimada mazmun jihatidan asl matnga yaqinlik saqlangan bo‘lsa-da, badiiy tomondan Gulistonning nozik va nafis uslubi to‘liq ifodalanmagan. Tarjimaning faqat muqaddimasi hamda birinchi qismi 1932-yilda nashr etilgan (Çavuşoğlu, 1978: XI).

2. XVI asr shoiri Pir Muhammad ibn Evrenos ibn Nuriddin Za’ifiy mazkur asarni Farididdin Attorning Pandnoma asari hamda Gulistonning sakkizinchi bobidan olingan she’riy parchalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali, bir xil vaznda va to‘liq manzum shaklda yaratgan. Ilmiy tadqiqotlarda ayrim hollarda ushbu asar faqat Pandnoma tarjimasi sifatida talqin qilingan bo‘lsa-da, aslida uning 986–1528-baytlari bevosita Gulistonning sakkizinchi bobidan tarjima qilinganini ko‘rish mumkin (Tokatlı, 1996: XX; Koçin, 1991: 42).

3. Muallifi va yozilgan sanasi aniq bo‘lmagan “Shayx Sa’diy Gulistonining fihristi” nomli asar ham qisman tarjimalar sirasiga kiradi. Hikmat Ilaydın bergan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu asar Kotib Ibrohim tomonidan Gulistonning ayrim manzum qismlarini she’riy tarzda tarjima qilish asosida tuzilgan bo‘lib, sakkizinchi bob esa hikmat va nasihatlari bilan to‘liq holda o‘girilgan (Olgun, 1978: 121).

4. Shuningdek, “Guliston baytlari” nomi bilan tanilgan to‘plam Gulistonda uchraydigan qit’alarni jamlash asosida tuzilgan. Unda satrlar orasida har bir so‘zning turkcha muqobili berilgan, ayrim sahifalarda esa qit’alarning to‘liq tarjimalari ham keltirilgan (Ateş, 1968: 196). Ushbu asarning qo‘lyozma nusxasi Istanbul universiteti kutubxonasida FY124 raqami ostida saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari Sharq adabiyotida axloqiy-didaktik yo‘nalishning eng mukammal namunalaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Asarning nasr va nazm uyg‘unligida yaratilgani, undagi chuqur falsafiy-axloqiy g‘oyalar hamda badiiy mukammallik uni nafaqat fors-tojik adabiy muhitida, balki butun islom olamida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Guliston” asarining turkiy tillarga tarjima qilinishi tasodifiy jarayon emas, balki ijtimoiy, madaniy va didaktik ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim adabiy hodisadir. Ayniqsa, Sayfi Saroyi tomonidan amalga oshirilgan “Guliston bit-turkiy” tarjimasi turkiy adabiyot tarixida yangi bosqichni boshlab bergan muhim manba sifatida e’tirof etiladi.

Keyingi davrlarda yaratilgan Ispijobiy, Mahmud ibn Qodiy Manyos, Ogahiy, Murodxo‘ja, shuningdek, tatar, ozarbayjon va boshqa turkiy tillardagi tarjimalar “Guliston”ning turli davr va

hududlarda qanday talqin etilganini yaqqol namoyon etadi. Bu tarjimalar orasida matnga sodiq, erkin, izohli hamda qisqartirilgan variantlarning mavjudligi tarjimonlarning individual yondashuvi, davr talablari va til xususiyatlari bilan belgilanadi.

Shuningdek, qo‘lyozma manbalar asosida aniqlangan yangi tarjimalar “Guliston”ning turkiy adabiy muhitdagi tarqalish doirasi ancha keng bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur asarning nafaqat adabiy, balki tarixiy-filologik ahamiyatini ham yanada oshiradi.

Umuman olganda, “Guliston”ning turkiy tarjimalari Sharq xalqlari o‘rtasidagi madaniy-adabiy aloqalarning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, ular orqali asarning g‘oyaviy-badiiy mohiyati turli davr va makonlarda qayta talqin etilib kelgan. Shu bois, mazkur tarjimalarni o‘rganish nafaqat tarjimashunoslik, balki tarixiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramov, G‘. (1997). “Xamsa”da mifologik zamon va makon talqini. *O‘zbek tili va adabiyoti*, №2, 78–81-betlar.
2. Arlik Миносян. (1962). “Сказки на армянском языке”. *Литературная Армения*, №8.
3. Ateş, A. (1968). *İstanbul Kütüphanelerinde Farsça Manzum Eserler*. İstanbul.
4. Bertels, E., Салье, M. (1937). “О художественном переводе”. *Литература и искусство Узбекистана*, №3.
5. Bodrogligeti, A. (1969). *A fourteenth century Turkic translation of Sa'dî's Gülistan (Sayf-ı Sarayi's Gülistan bi't-Türkî)*. Budapest: Akademiai Kiado.
6. Eckmann, J. (1989). “Sadi Gülistân'ın bilinmeyen Çağatayca bir çevirisi”. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten*, 17–29-betlar.
7. Eckmann, J. (1996). “Memlûk-Kıpçak edebiyatı”. *Harezm, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar*. Ankara.
8. Erkinov, A. (2022). “Темурийлар даври дурдонаси: Саъдий ‘Гулистон’ининг ўзбек тилидаги янги топилган таржимаси хусусида”. *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*.
9. Фозил Йўлдош ўғли (айт.), Афзалов, M. (1968). *“Лайли ва Мажнун”*. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти.
10. Ганиева, С. (2004). “‘Гулистон’ ва ‘Бўстон’ таржималаридаги баъзи носозликлар”. In: *Шайх Саъдий ва ўзбек адабиёти: илмий анжуман материаллари*. Теҳрон–Тошкент: Меҳр.
11. Ҳайитметов, А. (2004). “‘Бўстон’ ва ўзбек адабиёти”. In: *Шайх Саъдий ва ўзбек адабиёти: илмий анжуман материаллари*. Теҳрон–Тошкент: Меҳр.
12. Ҳазратқулов, Ж. (2004). “Саъдий ‘Гулистон’и ва форс насри”. In: *Шайх Саъдий ва ўзбек адабиёти: илмий анжуман материаллари*. Теҳрон–Тошкент: Меҳр.
13. İlaydın, H. (1974). *Sadi, Gülistan*. İstanbul: Hürriyet Yayınları.
14. Исҳоқов, Ё. (1968). “Навоий ижодида рубоий жанри”. *Ўзбекистонда ижтимоий фанлар*, №9.
15. Jo‘rayev, M., Narziqulova, M. (2006). *Mif, folklor, adabiyot*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
16. Joseph, T. (1331). “On dördüncü asır sonlarına kadar Türk dili yâdigarları”. *Millî Tetebbular Mecmuası*, 81–133-betlar.
17. Karamanlıoğlu, A. F. (1969). “Seyf-i Sarâyî'nin Gülistan tercümesinin dil husûsiyetleri”. *Türkiyat Mecmuası*, 75–126-betlar.
18. Karamanlıoğlu, A. F. (1972). “Seyf-i Sarâyî'nin Gülistan tercümesinin yayımı üzerine”. *Türkiyat Mecmuası*, 251–261-betlar.
19. Кормушин, И. В. (1997). *Тюркские и енисейские эпитафии: тексты и исследование*. Москва: Наука.